

---

## “YOSHLAR DAFTARI”GA KIRITILGAN YIGIT-QIZLAR MUAMMOSI QANDAY HAL ETILADI?

Qo'shtepa tumanidagi "Yoshlar markazi"da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 132-sonli qarorida belgilangan yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish va bandligini ta'minlash ishlarini samarali tashkil etish yuzasidan Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi hamkorligida 51 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar bilan ishlashga ma'sul bo'lgan xodimlarga "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olingan yoshlar bilan ishlash yuzasidan o'quv seminar bo'lib o'tdi.



Seminar davomida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javob berildi. Shuningdek, "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olingan yoshlarning muammolarini qanday hal etish, yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish va bandligini ta'minlash ishlarini samarali tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berildi.



**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-03-24 14:42:39